



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

Namangan sh. Istiqlol ko'chasi 57.

2023 - yil «17» - yanvar

22-6-0-Q/23

Namangan viloyati hokimligi

### **Namangan viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 8-apreldagi 102-son qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 15-son, 186-modda) hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993-y., 9-son, 320-modda) 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan 2022-yil 30-dekabrda kelishilgan Namangan viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari hamda ijara haqining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risidagi taklifi ma'lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha) 1-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 2-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (M.Qutbitdinov)ga qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Namangan shahar va tumanlar hokimliklariga hududlardagi davlat tashkilotlari va mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda balanslarida bo‘lgan, foydalanilmay bo‘sh turgan mulklardan samarali foydalanish, ularni ijaraga berish yuzasidan Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy taklif va ma’lumotlar kiritib borish vazifalari topshirilsin.

5. Viloyat Xalq ta‘limi boshqarmasi (A.Mahkamov), Kasbiy ta‘limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi (B.Tojimatov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.Iminov), Madaniyat boshqarmasi (K.Siddiqov), davlat mulkini balansida saqlovchi barcha muassasa va tashkilotlar rahbarlari:

yil choragida kamida bir marta o‘zining yuritishida bo‘lgan davlat mulkini xatlovdan o‘tkazsin va foydalanilmayotgan davlat mulki aniqlangan taqdirda 10 kun mobaynida Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga tegishli ma’lumotlarni taqdim etib borsin.

6. Viloyat hokimligining matbuot va axborot boshqarmasi (F.Mamadaliyev), viloyat teleradiokompaniyasi (M.Maqsudov), “Namangan haqiqati” (A.Sattarov) va “Namanganskaya pravda” (O.Inamov) gazetalariga Davlat aktivlarini boshqarish viloyat hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev) hamda Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (M.Qutbitdinov)ning takliflari asosida viloyatdagi bo‘sh turgan, ijaraga beriladigan davlat tasarrufidagi obyektlar ro‘yxatini ommaviy axborot vositalari orqali bepul yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Namangan viloyati hokimining 2022-yil 18-yanvardagi 40-6-0-Q/22-son qarori o‘z kuchini yo‘qotsin.

8. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga

joylashtirilsin.

Belgilansinki, ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kamabag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari T.Yusupov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh.Abdurazakov

Namangan viloyat hokimining  
2023 yil 17 yanvardagi  
22-6-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Namangan viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2023 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga) so'zda	
		Namangan shahri va tarkibidagi tumanlarda	Tumanlarda
<b>Ishlab chiqarish</b>			
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	11 900	8 700
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari)	11 900	8 700
3	Neft-kimyo sanoati	11 900	8 700
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	11 900	8 700
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
6	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	9 700	7 200
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	11 900	7 200
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	11 900	8 700
10	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	11 900	8 700
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	11 900	8 700
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	37 700	28 300
<b>Qurilish sanoati</b>			
16	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	9 700	7 200
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	35 900	26 600
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	63 000	37 300
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	11 900	8 700
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	11 600	8700
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	37 700	28 300

22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	26 700	20 050
<b>O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati</b>			
23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	11 900	8 700
24	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	11 900	8 700
25	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
<b>Engil sanoat</b>			
26	To'qimachilik sanoati	11 900	8 700
27	Tikuvchilik sanoati	11 900	8 700
28	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	11 900	8 700
<b>Oziq-ovqat sanoati</b>			
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	11 900	8 700
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
32	Sut mahsulotlari sanoati	23 300	17 400
33	Baliq mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
34	Tegirmonchilik sanoati	11 900	8 700
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	9 700	7 200
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
<b>Sanoatning boshqa tarmoqlari</b>			
38	Tibbiyot sanoati	11 900	8 700
39	Poligrafiya sanoati	29 200	25 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	14 600	10 600
<b>Qishloq xo'jaligi</b>			
41	O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
42	Issiqxona xo'jaligi	9 000	8 000
43	Chorvachilik va parrandachilik	5 700	4 300
44	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	4 798 000	3 559 100
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	3 119 000	2 313 600
46	Veterinariya xizmatlari	11 900	8 700
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	11 900	8 700

48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
<b>Transport va aloqa</b>			
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	11 900	8 700
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 000	2 400
51	Avtomobillarni yuvish	38 500	25 100
52	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	38 500	32 400
53	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shaxobchalari)	46 800	35 100
54	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	20 400	15 300
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	21 620	16 200
56	Pochta aloqasi	11 900	8 700
57	Kuryerlik aloqasi	24 000	17 700
58	Elektr-simli aloqa	24 000	17 700
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	100 800	74 800
<b>Savdo va umumiy ovqatlanish</b>			
60	Ulgurji savdo	33 600	25 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	86 300	63 900
62	Chakana savdo	33 600	25 000
63	Umumiy ovqatlanish	33 600	25 000
64	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	52 600	36 100
65	Kitob do'konlari	4 700	3 600
66	Lombardlar	43 400	32 200
<b>Xizmat ko'rsatish</b>			
67	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	33 600	25 000
68	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	33 600	25 000
69	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	50 400	37 500
70	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	33 600	25 000
71	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	33 600	25 000
72	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	60 000	44 300
73	Mehmonxona xo'jaligi	38 400	28 400
74	Umumiy yashash joylari	29 900	21 700
75	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	19 320	14 260

76	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	28 900	21 700
77	Hammomlar	57 800	42 800
78	Saunalar va basseynlar	115 200	85 500
79	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	19 300	14 200
<b>Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot</b>			
80	Sog'liqni saqlash	24 000	17 700
81	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	44 200	33 200
82	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	24 000	17 700
83	Fitobar	16 600	12 300
84	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	38 400	28 400
85	Jismoniy tarbiya va sport	11 900	8 700
86	Dorixonalar	19 300	14 200
87	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	40 400	22 500
88	Ijtimoiy-dorixonalar	17 100	11 500
<b>Ta'lim</b>			
89	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	19 320	14 200
90	O'quv kurslarini tashkil etish	39 600	29 700
91	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	15 065	11 615
92	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	9 700	7 245
93	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	23 400	17 500
94	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy ovqatlanish	11 900	8 700
95	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500	6 600
96	Madaniyat va san'at	33 600	25 000
97	Ko'rgazmalar	25 900	20 100
98	Madaniyat va dam olish bog'lari	24 000	17 700
99	Botanika bog'lari va zooparklar	24 000	17 700
100	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	24 000	17 700
101	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	38 400	28 405
102	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	14 600	10 600
103	Avtomaktablar	21 300	12 600
<b>Moliya-kredit faoliyati</b>			
104	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	33 600	25 000

105	Auditorlik faoliyati	33 600	23 400
106	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	33 600	25 000
107	Bank faoliyati	33 600	25 000
<b>Faoliyatning boshqa turlari</b>			
108	Sug'urta va notarial xizmatlar	33 600	25 000
109	Sud va yuridik xizmat muassasalari	28 900	21 700
110	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	28 900	21 700
111	Jamoatchilik birlashmalari	9 700	7 000
112	Omborxonalar	33 600	25 000
113	Davlat tashkilotlariga ofis	14 600	10 600
114	Xususiy tashkilotlarga ofis	52 600	39 100
115	Arxiv xizmati	14 600	8 900
116	Tahririyat va nashriyotlar	19 300	14 200
117	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	19 300	14 200
118	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	19 300	14 200
119	Engil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	38 400	28 400
120	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	29 200	21 900
121	Laboratoriyalar	24 000	17 700
122	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	96 400	71 400
123	Madaniy meros ob'ektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	52 600	39 100
124	Madaniy meros ob'ektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	46 100	34 200
125	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	28 400	21 300
126	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	52 600	39 100
127	Bankomatlar	480 800	356 600
128	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	33 600	21 700



**izoh:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig‘ilish bayonining (30.06.2009y. №7/10-41) 11-bandiga muvofiq, Qishloq vrachlik punktlari huzurida faoliyat yuritayotgan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar dorixona muassasalariga davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017 yildagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 834-son qarori muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki ob‘ektlari O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi a‘zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara to‘lovining “nol” stavkasi asosida beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.09.2017-yildagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ–3271-son qarorining 3-bandiga asosan Namangan viloyati hokimligi har bir shahar va tumanda kitob savdosiga ixtisoslashtirilgan do‘konlarni tashkil etish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlariga foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarining tekin foydalanish uchun berilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017 yildagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to‘lovining “nol” stavkasi asosida ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2018 yildagi 609-20-sonli topshirig‘iga asosan, kelgusida Mudofaa vazirligi tomonidan vazirlik tizimidagi o‘z faoliyatini iqtisodiy mustaqillik, o‘zini o‘zi ta‘minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradigan davlat unitar korxonalariga, shuningdek vazirlikning boshqa tarkibiy bo‘linmalariga binolarni, inshootlarni, joylarni, asbob-ukunalarni, meballarni va boshqa mol-mulkni ijara shartnomasi asosida vaqtinchalik foydalanishga berishda binolardan, inshootlardan, joylardan, asbob-ukunalardan, meballardan va boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining “nol” stavka belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.03.2018-yilgi “Nogironligi

bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha 2018-2019-yillarga mo‘ljallangan davlat Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 247-sonli qaroriga muvofiq faoliyat ko‘rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblangan hamda ishchilari sonining uchdan ikki qismi nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga davlat mulki ob’ektlari uchun ijara to‘lovi belgilangan eng kam to‘lovning 50 foizi miqdorida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 10-bandi ikkinchi xatboshisiga asosan hunarmandlar uchun davlat mulki obyektlari uchun ijara to‘lovi belgilangan eng kam to‘lovning 50 foizi miqdorida belgilanadi

Namangan viloyat hokimining  
2023 yil 17 yanvardagi  
22-6-0-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

### Namangan viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

Obyektning joylashgan o'рни va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsiyentlar		
	1-toifa	2- va 3-toifalar	4- va 5-toifalar
1. Ijara obyektini hududiy zonalar bo'yicha koeffitsiyent - (Kz)	2,2	2,0	1,6
1.1. Uyali aloqa qurilma va moslamalari uchun	2,2		
2. Obyektning qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent - (Kq)			
- alohida turadigan binolar bo'yicha	1,3	1,2	0,9
- bino ichida va bino yonida qurilganlari bo'yicha	1,0		0,8
- yarim yerto'la va yerto'la xonalari, cherdak, bolaxona qismlari bo'yicha	0,6		0,5
- binoning tom qismidagi qurilmalar bo'yicha	0,6		
3. Yondosh hududdagi yer maydondan (texnik maydon, dehqonchilik maqsadida) foydalanilgandagi koeffitsiyent - (Kh)			
3.1. Uyali aloqa antennalari egallagan texnik maydonlar uchun	0,6		
4. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti - (Ko)			
- binolarning tom qismidagi uyali aloqa antennalari o'rnatilgan qurilmalar uchun	1,2	1,1	0,9
- binolarning tom qismidagi uyali aloqa antennalari o'rnatilgan qurilmalar uchun	0,6		

- Yer maydoniga o'rnatilgan uyali aloqa, radio, peydjer antenna va boshqa qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna tortqich qoziqlari umumiy perimetri bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va unga qo'llaniladigan tegishli koeffitsiyentlar asosida belgilanadi.

- Davlat tashkilotlarining texnik maydonidan foydalanuvchi subyektlar

uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va qurilish turiga ko'ra belgilanadigan (Kq) koeffitsiyentlarni hisoblanmagan holda belgilanadi.

Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko).$$

**Ts**-bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

**Es**- bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

**Kz**- hududiy zonalar koeffitsienti;

**Kq**-qurilish turi bo'yicha koeffitsient (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning tom qismi, cherdak, bolaxona, yarim yerto'la, yerto'la);

**Kh**-tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

**Ko**-tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Izoh:

1-toifa Namangan shahar, Davlatobod tumani, Yangi Namangan tumani.

2-toifa To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlari

3-toifa Kosonsoy, Namangan, Pop, Chortoq hamda Chust tumanlari

4-toifa Norin tumani

5- toifa Mingbuloq tumani